



REPORTAJ JANRINING TIL XUSUSIYATLARI (O'zbekistondagi tojik gazetolari misolida)

Rahimqulov G'ayrat,

SamDU tojik tili va adabiyoti kafedrasasi o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *gazeta tili, tojik tilida chop etilayotgan gazetalar, reportaj atamasi, ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi.*

O'zbekistondagi tojik matbuoti tilining tadqiq etilishi, ya'ni Mustaqillik yillarida tojik gazetolari tilida yuz bergan o'zgarishlarni ilmiy baholash ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, shu kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Masalaning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni talablari ijrosini ta'minlash nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Gazeta materiallarining jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushini yoritishni qanchalik qamrab olganligi, janr tanlash imkoniyatlari va tildan qanday foydalanilayotganligi uning internet jurnalistikasi va radio-televideniye bilan raqobatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Gazetaning jamiyatdagi mavqeini baholash, yutuq va kamchiliklarini ko'rsatish, tegishli ilmiy va amaliy tavsiyalar berish bilan uning rolini oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Demak, gazeta tili, jumladan, O'zbekistonning hozirgi davrda tutgan yo'li, Prezident farmonlari va qarorlari, Hukumat siyosatini o'ziga xos tarzda boshqa millat vakillariga targ'ib-tashviq qilayotgan tojik matbuotining tili ham atroflicha ilmiy tadqiq qilinishi lozim, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston ning birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston buyuk kelajak sari» kitobida bayon etilgan fikrlari ommaviy axborot vositalari faoliyatini tashkil etish uchun katta xizmat qildi va matbuotga e'tibor nihoyatda oshdi [9:557-558].

Hozirgi davrning shunday talablari va I.Karimovning dasturiy ko'rsatmalari O'zbekiston ommaviy axborot vositalari, shuningdek, tojik tilida chop etilayotgan gazetalar oldiga ham muhim vazifalarni qo'ydi. Shu jihatdan Respublikamizda tojik

tilida chop etilayotgan gazetalarining tili va uslubini o'rganish muhimdir.

Tojik tilshunosligida gazetalar tili va uslubi boshqa milliy tillar (rus, o'zbek va boshqa) kabi atroflicha ilmiy o'rganilmagan bo'lsa ham, ba'zi ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Jumladan, I.Usmonovning tadqiqotida 1917-1929 yillar nashr etilgan tojik matbuoti tiliga doir tarixiy ma'lumotlar o'z ifodasini topgan [15: 23].

T. Berdieva tojik tili gazetolari tilida termin qo'llash masalalari va o'ziga xos leksikasi to'g'risida fikr yuritgan [2:115].

R.To'raxo'jaevaning nomzodlik dissertatsiyasida «Haqiqati O'zbekiston» (hozirgi «Ovozi tojik») gazetasida tojikcha va arab tiliga xos so'zlarning ishlatilishi tahlil etilgan [14:123].

M. Shakurining[20:180] «Har suxan joevu har nukta maqome dorad» nomli ilmiy risolasida tojik gazetolari tili leksikasining ayrim kamchiliklari to'g'risida fikr yuritilgan [20:180].

Mustaqillik davrida Tojikiston Respublikasidagi tojikcha gazetalarining tilidagi jiddiy kamchiliklar to'g'risida ham ayrim tadqiqotlar yaratilgan. Prof. B.Kamoliddinov [7:182] «Adabiyot va san'at», «Ma'rifat», «Payomi Dushanbe», «Javononi Tojikiston», «Charxi gardun», «Jumhuriyat», «Junbish», «Sadoi mardum» va boshqa gazetalarining tilini tahlil etib, ulardagi lug'aviy, fonetik, uslubiy va grammatik kamchiliklarni faktlar bilan asoslaydi [7:182].

«Zabon va istiqloq» nomli ilmiy maqolalar to'plamida Tojikiston Respublikasi mustaqillik davri tojik matbuoti tilining ko'p muhim masalalari yoritilgan [3:107]. Shuningdek, prof. M. Qosimova «Ba'ze qaydho dar borai zaboni axbori omma» nomli



maqolasida gazeta va jurnallarda soʻz va soʻz birikmalarini oʻz oʻrnida ishlatmaslik va tojik tili imlo qoidalariga rioya etmaslik toʻgʻrisida mulohaza bildirgan [12:41-48].

Tojik tilshunosligida olib borilgan bu kabi tadqiqotlar diqqatga sazovor, ammo ularda ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi maxsus oʻrganilmagan.

Mustaqillik davrida Oʻzbekistonda nashr etilayotgan «Ovozi tojik» va «Ovozi Samarqand» gazetalarining ham Prezidentimiz va Hukumatimiz siyosatini keng ommaga etkazishdagi roli tobora oshib bormoqda. Respublikamiz hayotini, islohotlarning mohiyatini tushuntirish, xalqning kelajakka ishonchini yanada oshirish sohasida muhim manbalardan biri hisoblangan ushbu gazetalarining tilini oʻrganish boʻyicha maxsus ilmiy tadqiqot hozirgacha yaratilgan emas.

Oʻzbekistonda nashr etilayotgan tojik gazetalarining tilining shakllanishi, gazeta tilining turli janrlari boʻyicha xos xususiyatlarini tadqiq qilish «Ovozi tojik» va «Ovozi Samarqand» gazetalarining taʼsirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada reportaj janrining ayrim til xususiyatlarini yoritishga harakat qildik.

Reportaj (guzorish) fransuzcha (reportage) soʻzidan olingan boʻlib, xabar bermoq, xabardor qilmoq maʼnosini ifodalaydi [17:378]. Reportaj axborot janrlarining bir turi boʻlib, tojik publitsistikasida ilmiy jihatdan maxsus oʻrganilmagan. I.Usmonovning nomzodlik dissertatsiyasida umumiy maʼlumot berilgan, xolos [15:119].

Reportaj soʻzi lugʻatlarda quyidagicha izohlangan: «Reportaj - jurnalistikaning informatsiya janri. Jurnalist oʻzi ishtirok etgan tantana yoki voqea-hodisa haqida xabar beradi. Reportajlar har xil boʻladi. Gazeta reportaji tematik va voqeeband boʻlib, unda suratlar ham foydalaniladi» [1: 25-26].

«Reportaj atamasi lotincha «reportare»dan olingan boʻlib, «xabar qilmoq», «darak bermoq» maʼnosini anglatadi... Atama XIX asrning birinchi yarmida paydo boʻlgan... Reportaj bugunda

jurnalistning oʻzi guvohi yoki ishtirokchisi boʻlgan voqea-hodisalar toʻgʻrisidagi tezkor hikoyasini bildiradi. Mazkur janrda yozilgan materialda hodisa joyida «boʻlish» hissi yuzaga keltiradi» [5:210].

Hozirgi vaqtda reportaj ikki maʼnoni bildiradi: «1) radio va televideniye orqali voqea sodir boʻlgan joydan olib borilayotgan eshittirish yoki koʻrsatuv; 2) vaqtli matbuotda yoritilgan mahalliy mavzulardagi qisqa xabar va axborot» [18:212].

"Oʻzbek tilining izohli lugʻatida shunday taʼrif berilgan: "Reportaj (r). Matbuot, radio, televideniya: sodir boʻlayotgan voqea-hodisalardan olib boriladigan mahalliy mavzulardagi xabar, maqola"[16:622].

A.Abdusaidov oʻzbek matbuotida reportaj janrining til xususiyatlarini oʻrganib, mavjud tadqiqotlardagi quyidagi fikrlarga tayangan: "Reportaj - bu maʼlum bir vaqtda sodir boʻlgan voqea haqidagi hikoyadir. Reportaj avvalo boshqa janrlardan turli harakatlarning, voqea detallarining va dinamikasining koʻpligi bilan farq qiladi. Reportajni faktlar orqali suhbatlashish desa boʻladi. Jurnalist sodir boʻlgan voqea haqida hikoya qilganda goʻyo gazetxon yoki jurnalxon xuddi oʻzi koʻrgandek tasavvurga ega boʻlishi kerak. Reportaj, avvalo, gazetxonga maʼlum boʻlmagan bironta yangilik haqida mukammal hikoya qilishdan iborat".

Reportajda boshqa axborot janrlari singari haqqoniylik, faktlarga asoslanish, operativlik, taʼsirchanlik kabi omillar juda muhimdir. Yangilik reportajning asosi hisoblanadi. Maʼlum voqea-hodisa, faktlar hamda tezkorlik bilan voqea sodir boʻlgan joydan tayyorlangan material reportajning magzini tashkil etadi. Unda voqea joyi tasvirlanadi, jonli muloqotlar beriladi, koʻpincha, materiallarda tantanavorlik aks etadi. Reportajning asosini axborot (informatsiya) tashkil etadi va xabar berish asosiy oʻrinni egallaydi, voqea-hodisa, faktlar tahlil qilinmaydi.

Ayrim reportajlar voqea sodir boʻlgan joy tasviridan yoki kishilar bilan muloqotdan,



yo voqea tarixi haqidagi qisqacha hikoyadan boshlanadi. Reportaj ta'sirchan, operativ janr sifatida gazetaning mavzu jihatdan rang-barangligini ta'minlaydi va o'qimishlilikini oshiradi.

Reportajda oddiy bayonchilikdan ko'ra obrazli ifoda ustun turadi. Bu esa jurnalistdan mahorat va chuqur bilim talab etadi. Chunki reportajda axborot jonli, ta'sirchan ifoda qilinadi.

Reportajda voqea joyi tasviri ham muhim rol o'ynaydi. Joy tasviri va tantanavor ruhni berish uchun obrazli ifodalar, emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar, o'xshatishlar, sifatlashlardan unumli foydalaniladi. Kishilar bilan muloqotning jonlilikini ta'minlash maqsadida dialoglar ham ishlatiladi, voqea qatnashchilarining nutqi beriladi. Chunki reportajda qahramonlar so'zi muhim ahamiyatga ega.

"Reportaj ko'p jihatlar bilan ocherkka yaqin turadi. Ocherk ham, reportaj ham fakt va voqealarning guvohi bo'lgan kishi tomonidan yoziladi. Lekin ocherk o'zining publitsistik ruhi, chuqur fikr yuritish va tahlili bilan reportajdan farq qiladi. Reportyor o'zining qisqa materiali orqali voqeaning muhimligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham reportajda ortiqcha tasvir bo'lmasligi kerak. Reportaj yorqin va lo'nda bo'lishi kerak. Jumlar ixcham, tili ravon bo'lmog'i lozim".

Publitsistik janrlarning o'ziga xos xususiyatlarini izchil tadqiq qilayotgan olim Muxtor Xudoyqulov o'zining "Jurnalistika va publitsistika" nomli o'quv qo'llanmasining "Reportaj - publitsistikaning muhim janri sifatida" [19:135] sarlavhali qismida e'tiborni tortadigan fikrlarni bayon etgan. Ma'lumki, informatsion publitsistikaning asosiy janrlaridan biri reportajdir. Reportaj so'zi lotincha bo'lib, etkazib berish degan ma'noni bildiradi. Reportaj voqea, hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion materialdir. Uning oddiy xabardan farqi shuki, xabarda hayotdan olingan fakt, voqea, hodisalar umumiy, ya'ni qayd etish tarzida bayon etilsa, reportajda fakt, voqea va hodisalar haqida bevosita, o'sha voqea- hodisa bo'lib o'tayotgan paytda,

shu voqea va hodisalar yuz berayotgan joydan to'g'ridan - to'g'ri xabar beriladi, boshqacha qilib aytganda, hayot voqealari qayd etilmaydi, balki harakatda, jonli tasvirlanadi hamda bu jarayonda jurnalist bevosita ishtirok etadi.

M.Xudoyqulov "Jurnalistika va publitsistika" nomli kitobining "Borliqning jonli aksi" [19:163-164] sarlavhali qismida reportajning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatgan: "Reportaj aks ettirayotgan ob'ekti nuqtai nazaridan **voqea reportaji, muayyan mavzuga bag'ishlangan reportaj, muammoli reportaj, reportaj-sharh** kabilarga bo'linadi. Reportaj qaysi ommaviy axborot vositasida berilishiga qarab **gazeta reportaji, jurnal reportaji, radioreportaj va telereportaj** kabi xillarga bo'linadi.

Yangiliklar xususida nisbatan tezkor xabar beradigan janrlardan biri reportaj bo'lib, unda jamiyat turmushidagi muhim voqealar haqida jonli, ta'sirchan hikoya qilinadi. Reportaj materialini asosan ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklar (korxonalarining ishga tushirilishi, yutuqlari va hokazo), bayramlar tafsilotlari tashkil etadi. Bu janrda asosan umumiste'mol so'zlardan foydalanilsa ham, voqealarni jonli tasvirlashda bo'yoqdor so'zlar, ifoda-tasvir vositalari, tasviriy ifodalardan ham o'zni bilan foydalaniladi, chunki mazkur vositalar so'zlarning «jilolarini ming bir qirrasini bilan ko'rsata oladigan va shu orqali ona tilimizning naqadar boy hamda go'zal ekanligini namoyish etishga tayyor turgan bitmas-tuganmas imkoniyatdir» [11:68]. Jurnalist voqealarni jonli tasvirlash uchun dialoglardan ham keng foydalanadi. Zero, mazkur janrda personajlar nutqi katta ahamiyatga ega.

Reportajda qahramonlar xarakterini ochish emas, balki voqeani jonli, tantanavor tasvirlash muhimdir. Reportaj janrining xususiyatlaridan biri shuki, unda ta'sirchan, ko'p ma'noli so'zlar, so'z birikmalari ko'p ishlatiladi. Ayrim reportajlarda sarlavha ostida «reportaj» so'zi qayd etilib, sarlavhaga kengroq izoh berilgan. Bu holat diqqatni tortishga xizmat qiladi: Idi chustu choloki va mahorat megardad [Ot., 14.05.03], «Halqai



vaslkunandai Sharqu G'arb», Afkori jomea dar borai anjumani Siyoh, Boz bahori Boysun faro rasid, «Dastgohhoi baxosiyat», «Dehae dar sinai ko'h» va shu kabilar.

«Ovozi tojik» gazetasi materiallarining tahlili shuni ko'rsatdiki, reportaj sarlavhasida ko'pincha bayram, tantanali kunlar, odamlar tantanali hayotining lahzalari kabilar aks ettirilgan: *Sho'hrati «Do'stlik» az mehnat* [Ot., 4.01.03], *Kishvari orzuhoi pokiza* [Ot., 25.01.03], *Jashni farxundai olimi mumtoz* [Ot., 8.01.03], «*UzDEUavto*»: *dar soli nav 110 hazor avtomobil* [1.01.05], *Dar pesh hududu ufuqhoi nav ba navand* [Ot., 31.01.07], *Sahifai zarrini solnomai boksi jahon* [Ot., 18.04.07], *Kalidi muvaffaqiyatho* [Ot., 24.01.07], «*Lukoyl oversiz*» *soxtmoni havzakro anjom dod* [Ot., 16.04.08].

Reportajda voqeaning jonli tarzda tasvir etilganligi unda ta'sirchan, bo'yoqdor so'zlarni ko'proq ishlatish hisobiga bo'lgan: *obhoi jonbaxsh* [Ot., 3.07.02], *tashnagoni ma'rifat, sahifahoi duraxshon dar ta'rix farhang, in shaxson hangomi donishjo'i niz obu otash budand* [Ot., 19.04.03], *kalidi muvaffaqiyati dehqon* [Ot., 24.01.07], *olami boks, sahifai navi tilloi* [18.04.07].

Reportaj janri tilining tarkibini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Yangi so'zlar (neologizmlar). «Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar eng avvalo leksikada o'z aksini topadi. Shuning uchun ham leksikaning boyib borishi tildagi boshqa elementlarga qaraganda birmuncha aktivdir» [13:40]. Shuningdek, jamiyatimizning turli sohalarida yuz beradigan har qanday yangiliklar yangi so'zlar vositasida tilda aks ettiriladi: *naqsha, sodirot* [Ot., 1.01.05], *shirkat, firma* [Ot., 15.11.06], *varzish, varzishgar, mushtzan, tolol, omo'zishgoh* [Ot., 18.04.07], *havopaymo, jamoa, furudgoh* [Ot., 31.01.07], *fermer, bemorxona, furo'shgoh* [Ot., 24.01.07], *ittihodiya, xolding, dollar, istgoh* [Ot., 16.04.08] shu kabilar.

2. Ruscha-baynalmilal so'zlar ham voqea va hodisalarning aniq bayon etilishiga xizmat qilgan. «XIX asrning II yarmidan

boshlab rus hukmronligi vujudga keltirilgan ijtimoiy muhit badiiy adabiyot rivojiga, xususan unda tildan foydalanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, albatta...» [10:4]. Ana shu ta'sir tufayli bugungi tojik matbuotida ham bir qator ruscha-baynalmilal so'zlar ishlatilayapti: *kadr, texnologiya, moshin, avtomobil* [Ot., 1.01.05], *champion, boks, ekran, televizor, final, nakaut, jurnalist* [Ot., 18.04.07], *aviatsiya, park, inspeksiya* [Ot., 31.01.07], *kompessor, kondensat* [Ot., 16.04.08], *model, salon, bamper, radiator, linza* [Ot., 22.03.08] va boshqalar.

3. Arabcha so'zlar ham voqea va hodisalarning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Bu so'zlar ona tilimiz tarkibida ommaviylashgan: *munosib, jashn* [Ot., 15.11.06], *taxassus, mustaqil, mustahkam* [Ot., 1.01.05], *muovin, tajdid, muttahid* [Ot., 22.03.08], *bayraq, iqtidor* [Ot., 18.01.07], *majlis, tarmim, tajassum* [Ot., 31.01.07], *mintaqa, mahsulot, muvofiq* [Ot., 16.04.08] shu kabilar.

4. Reportajda juft sinonimlarning ko'plab qo'llanilishi ham nutqning ta'sirchan bo'lishi uchun muhim uslubiy vazifani bajaradi. Tadqiqotchilarning fikricha, juft sinonimlar his-hayajon va tantanali ruh munosabatini bayon etishga xizmat qiladi [21:18-24]. Masalan, «*Idi justu choloki va mahorat megardad* [Ot., 14.05.03] nomli maqolada quyidagi juft sinonimlar ishlatilgan: *mazmunu mundarija, jadvalu naqshaho, soxtanu tajdid gardonidan, asbobu anchom, diqqatu e'tibor, xushu xursand, soxtanu tarmim, hamjavoru hammazhab, hukumatu vazoratxonaho* [Ot., 22.02.03], *jasorat va mardonagi* [Ot., 18.04.07], *tajdidu tarmim* [Ot., 31.01.07] kabilar. Ularning jumlada muhim uslubiy vazifani bajarganligini quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin:

Dar barobari ba dast ovarani kamarbandi tilloii chempioni *jasorat va mardonagi* namoish medod [Ot., 18.04.07].

Tai solho parki kishtihoi havoii kullan nav shud, ... furudgohho ro'i *tajdidu tarmimro* didand [Ot., 31.01.07].

5. «Frazologizm tilning estetik funksiyasi namoyon bo'ladigan eng yorqin



elementlardan biridir» [4:96]. Tojik matbuotida reportajlarda xalq maqollari va frazeologik birikmalar ko'p qo'llanilgan, chunki ular aniq uslubiy maqsad bilan fikrni ta'sirchan ifodalash uchun ishlatilgan [7:---]. Masalan: *ba zabon girifan, rohi hayot, maydoni ilm, mavji tabrikot, zabona zadan* [Ot., 8.01.03], *dar og'o'shi maydon, virdi*

zabon gashtan, musiqi az qalb baromadan, sarhadi san'at [Ot., 2.07.03], *barnomai puxta, davlati shukufon* [Ot., 18.01.03].

Reportaj janrining tili boshqa axborot janrlaridan jonliligi, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Lekin ocherk janriga qaraganda, reportajda umumiste'mol so'zlar, neytral so'zlar ko'proq ishlatilgan.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov A. Gazeta jurnalistikasi terminlarining qisqacha izohli lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1983, 25-26-b.
2. Berdiyeva T. Gazetnaya leksika i voprosi terminologii. Mas'alahoi zabonshinosi. - Dushanbe, 1983, 115-b.
3. Zabon va istiqloq (majmo'ai maqolaho). - Dushanbe, 2001, 107-b.
4. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. O'quv qo'llanma. - Samarqand, 1998, 96-b.
5. Lug'at - ma'lumotnoma: Jurnalistika, Reklama, Pablik, Rileyshnz: 1700 ta atama /Mualliflar hay'ati: F.P. Nesterenko (rahbar), M. Kazem, YA. M. Mamatova va boshq. - T.: Zar qalam, 2003, 210-b.
6. Kamoliddinov B. Uslubshinosi. - Dushanbe: Irfon, 1977, 46-b.
7. Kamoliddinov B. Suxan az bahri digaron go'yand. - Dushanbe: Internyus, 2001, 182-b.
8. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1997, 177-b.
9. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - Toshkent: O'zbekiston, 1998, 557-558-b.
10. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. Monografiya. - Samarqand: Zarafshon, 1992. - 4 b.
11. Karimov S. A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. O'quv qo'llanmasi. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 1994, -68-b.
12. Qosimova M. N. Ba'ze qaydho dar borai zaboni omma. Zabon va istiqloq (majmo'ai maqolaho). - Dushanbe, 2001. 41-48-b.
13. Qo'ng'urov R. Q. , Karimov S.A., Qurbonov T. I. Nutq madaniyati asoslari. Leksiyalar teksti. - Samarqand: SamDU nashri, 1985, 40-b.
14. Turaxudjaeva R. Leksicheskie novoobrazovaniya russko-internatsionalnogo roisxojdeniya v tadjiskom yazike (po materialam gazeti «Haqiqati O'zbekiston» za 1950-1975 g.g.). Dissertatsiya. - Dushanbe, 1986, 123-b.
15. Usmonov I. K. Stanovlenie i razvitie tadjiskoy pechati v 1917-1929 g.g. AKD. -M., 1976, 23-b.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati, 1 tom. - Toshkent, 1981, 622-b.
17. O'zbek tilining izohli lug'ati. III tom. -T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 378-b.
18. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati /A. Hojiev, A. Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshqalar. -T.: SHarq, 2001, 212-b.
19. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Universitet, 2010, 135-bet.
20. Shukurov M. Har suxan choevu har nukta maqome dorad.- Dushanbe: Irfon, 1985,180-b.
21. G'afforov R. Vazifai uslubii murodifho. - Ma'rifat, №8, 1990. 18-24-b.



Рахимкулов Г. Особенности языка жанра репортажа (на материале таджикоязычных газет Узбекистана). В данной статье на ярких примерах освещены вопросы особенностей языка в жанре репортажа. Также проведён анализ уровня знаний языка таджикской прессы, специфика, значимость и языковой состав жанра репортажа.

Rahimqulov G. Linguistik features of report genre (on the material of Tadjik newspapers). This article clearly describes the linguistic essence of report genre in the proof of examples. In this article the author has also analysed the degree of learnedness of Tadjik press, fealures and significance of report genre and lingual content of report genre.
